



HOZIRGI O'ZBEK TILIDA OLMOSSH SO'Z TURKUMI TAHLILI

Hakimova Hidoyatxon

Andijon davlat peagogika instituti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada olmosh so'z turkumining qo'llanilishi, turlari, qaysi so'z turkumlari o'rnila qo'llanib kelishi haqida yoritilib yozilgan.

Kalit so'zlar: morfologiya, olmoshlar, olmoshlarning turlari, ot, sifat, son so'z turkumlari.

Har bir millatning o'zligini anglatuvchi vosita uning tili hisoblanadi. Til-millat ko'zgusi. Shaxsning kamol topishida, tafakkurning rivojla-nishida tilning o'rni kattadir. Shu bois, maktabda ona tili faniga alohida ahamiyat beriladi. Hozirgi kunga qadar o'zbek tilini rivojlantirish uchun yurtimizda salmoqli islohotlar olib borilmoqda. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad o'zbek tilini dunyo tillari qatoriga olib chiqishdir. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov o'zining "Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch" asarida ona tilimizning hayotimizdagi o'rni to'g'risida shunday yozgan: Ma'lumki, o'zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o'rtasidagi ruhiy-ma'naviy bog'liqlik til orqali namoyon boladi. Jamiki, ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili - bu millatning ruhi."¹ Ijtimoiy hayotida va xalqaro miqiyosdagi obro'-e'tiborini tubdan oshirish, unib-o'sib kelayotgan yoshlarimizni vatanparvarlik, milliy an'ana va qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash, mamlakatimizda davlat tilini to'laqonli joriy etishni ta'minlaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning 2019-

¹ Каримов И. А. Юксак маънавият – енгилмас куч. –Тошкент: Маънавият. 2008. – Б. 176



yil 21-oktabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5850-son Farmoniga muvofiq:

Oliy va o‘rtalik maxsus ta’lim vazirligi, Innovatsion rivojlanish vazirligi bilan birligida o‘zbek tilidan jahonning yetakchi xorijiy tillariga va xorijiy tillardan o‘zbek tiliga tarjima qiluvchi kompyuter dasturini Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O‘zbek tilini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan yaratish choralarini ko‘rsin;

O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi bilan birligida tizimdagi axborot-tahliliy, ma’naviy-ma’rifiy va madaniy-gumanitar telekanallarini xorijiy davlatlarda teleradiokompaniyaning OTT platformasini (Internet tarmog‘i orqali teledasturlarni namoyish etish tizimi) Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan ishga tushirish va boshqa zamonaviy informatsion texnologiyalardan foydalangan holda namoyish etilishini ta’minlasin.²

Tilshunoslikda tilning grammatik shakllarini o’rgatuvchi bo’limga morfologiya deyiladi. Morfologiya so’zi yunonchadan olingan bo’lib, “morphe” - “shakl”, “logos” -“ta’limot” “shakl haqida ta’limot” degan ma’noni anglatadi. Morfologiya bo’limida so’z turkumlari o’rganiladi. So’z turkumlari uch xil bo’lib, 1-Mustaqlil so’z turkumlari.

2-Yordamchi so’z turkumlari.

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev. Toshkent sh. 2020-yil 20-oktabr, PF-6084-son.1-ilova.



3-Alohida olingan so'zlar.

1. Mustaqil so'z turkumlari 6 ta bo'lib, bular: ot, sifat, son, fe'l, olmosh, ravish.
2. Yordamchi so'z turkumlari 3 ta bo'lib, bular: bog'lovchi, ko'makchi, yuklama.
3. Alohida olingan so'zlar 3 ta bo'lib, bular: undov, taqlid, modal so'zlar.

Mustaqil qo'llana olmaydigan, ma'lum so'roqqa javob bo'lmaydigan faqat ot, sifat, sonlarning o'rnida qo'llanib, ularga ishora qilib keluvchi so'z turkumiga olmosh deyiladi. Olmoshlarning turlari 7 ta bo'lib, bular:

1. Kishilik olmoshi. (men, sen, biz, siz, u, ular)
2. O'zlik olmoshi. (o'z)
3. Ko'rsatish olmoshi. (u, bu, shu, o'sha, ana, mana, mana bu, ana bu, ana shu, manovi, anovi)
4. So'roq olmoshi. (kim? nima? qayer? qanday ? qanaqa? va barcha so'roq so'zlar)
5. Belgilash olmoshi. (har bir, har kim, har nima, har qancha, har qanday, har qaysi hamma, barcha, bari va hokazo)
6. Bo'lishsizlik olmoshi, (hech kim, hech nima, hech qayer, hech qaysi, hech qachon, hech qancha, hech qanday va hokazo)
7. Guman olmoshi.(kimdir, nimadir, qayerdir, qchondir, allakim, allaqaysi, allanima)

Xalq og'zaki ijodida ham olmoshlar keng qo'llanadi. Bu esa, olmoshlarning vazifa ko'lami nihoyatda serqamrov ekanligidan dalolat beradi. Masalan, bitta (bu) olmoshining qo'llanish chastotasiga e'tiboringizni qaratsak. (Bu) olmoshi Alpomish dostonida 1069 marta, uning bu varianti esa, 466 marta, Ravshan



dostonida (bu) olmoshi 139 marta, Rustamxon dostonida 282 marta qo'llangan. Lug'atda (bu) olmoshi eng ko'p qo'llangan so'zlar qatorida turibdi.³

Olmoshlarning o'ziga xos yana bir jihatni possesiv munosabat ifodalay olishidir. Possesiv munosabatlar **kishilik olmoshlari** hamda **bor bo'lmoq yordamchi fe'lining - dir ko'rinishi** orqali hosil bo'ladi. Masalan: Men Zarifaman, biz insondirmiz.⁴

Quyida Xudoyberdi To'xtaboyevning "Jannati odamlar" asarida olmoshlarning turlariga misollarni ko'ramiz:

1. **Men** shosha – pisha bobojonimning yoniga o'tib, paypaslab qo'lini ushlayman. (kishilik olmoshi)
2. Ahmadqul bobom qiyiqda bir narsa tugib kelgan ekan, ushla-chi, deya uzatdi-da, meni bir chekkaga surib **o'zi** ichkari hovlimizga jadal kirib ketdi.(o'zlik olmoshi)
3. **Hammamizning** cho'ntagimizni to'ldirib yong'oq solib beradi. (belgilash olmoshi)
4. **O'sha** esimga tushib berkitib, oldin zanjirni osdim, keyin tanbasini ham tirab qo'ydim-da, qani, qiyiqda nima bor ekan, deya ochib ko'ra boshladim.(ko'rsatish olmoshi)
5. **Hech kimga** aytmagin degan edi.(bo'lishsizlik olmoshi)
6. Keyin o'sha hokizni **nima** qilishgan ekan? (so'roq olmoshi)
7. Eshikni **kimdir** ochib kirganini Ahmadqul sezib qoldi. (so'roq olmoshi)

Olmoshlar "ichi bo'sh" so'zlar deb ham yuritiladi. O'zbek ilida olmoshlarning o'llanishi keng qamrovlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

³ D. O'rino boyeva O'zbek xalq dostonlari tilining chastotali lug'ati. – Toshkent, 2006.

⁴ Z. Shukurova O'zbek tilida egalik kategoriysi. O'zbek tiliga adabiyoti. 2014.



1. Каримов И. А. Юксак маънавият – енгилмас куч. –Тошкент: Маънавият. 2008. – Б. 176
2. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev. Toshkent sh. 2020-yil 20-oktabr,PF-6084-son.1-ilova.
3. D. O’rinboyeva O’zbek xalq dostonlari tilining chastotali lug’ati. – Toshkent, 2006.
4. Z. Shukurova O’zbek tilida egalik kategoriyasi. O’zbek tiliga adabiyoti. 2014.